



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
Allamurodov Elyor Tursun ugli	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
Dilrabo Jumanova	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar	227
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar	232
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	



BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARARO YONDASHUVGA ASOSLANGAN INTEGRATIV TOPSHIRIQLAR ISHLAB CHIQUISHNING USLUBIY ASOSLARI

Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang'ich sinflarda integrativ topshiriqlarni ishlab chiqishning nazariy va metodik asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Zamonaviy boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilimlarni alohida fanlar doirasida emas, balki hayotiy vaziyatlar, muammolarni hal etish, kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish va ijodiy qo'llash jarayonida egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ topshiriqlar ona tili, matematika, tabiiy fanlar, texnologiya, tasviriy san'at, tarbiya hamda o'qish savodxonligi kabi fanlar mazmunini yagona o'quv vazifasi atrofida birlashtiradi.

Tadqiqotda integratsiyalashgan o'quv dasturlari, fanlararo yondashuv, STEAM ta'limi, kompetensiyaviy ta'lim va baholashga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Natijada boshlang'ich sinflar uchun integrativ topshiriqlarni ishlab chiqishning bosqichlari, mezonlari, turlari va baholash ko'rsatkichlari taklif etildi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, integrativ topshiriq, fanlararo integratsiya, kompetensiya, STEAM, metodika, baholash, o'quv jarayoni.

Abstract: This article is devoted to the theoretical and methodological foundations of developing integrative tasks in primary education. In modern primary education, it is important for students to acquire knowledge not within the framework of separate subjects but through real-life situations, problem-solving activities, observation, comparison, analysis, and creative application of knowledge. Integrative tasks combine the content of subjects such as native language, mathematics, natural sciences, technology, fine arts, moral education, and reading literacy around a single educational objective.

The study analyzes scientific sources related to integrated curricula, interdisciplinary approaches, STEAM education, competency-based learning, and assessment. As a result, the stages, criteria, types, and assessment indicators for developing integrative tasks for primary school students are proposed.

Key words: primary education, integrative task, interdisciplinary integration, competency, STEAM, methodology, assessment, educational process.

Аннотация: Данная статья посвящена освещению теоретических и методических основ разработки интегративных заданий в начальной школе. В современном начальном образовании важное значение имеет формирование знаний учащихся не в рамках отдельных учебных предметов, а в процессе решения жизненных ситуаций и проблем, наблюдения, сравнения, анализа и творческого применения полученных знаний.

Интегративные задания объединяют содержание таких предметов, как родной язык, математика, естественные науки, технология, изобразительное искусство, воспитание и читательская грамотность вокруг единой образовательной задачи. В исследовании проанализированы научные источники, посвящённые интегрированным учебным программам, междисциплинарному подходу, STEAM-образованию, компетентностному обучению и оцениванию. В результате предложены этапы, критерии, виды и показатели оценки разработки интегративных заданий для начальной школы.

Ключевые слова: начальное образование, интегративное задание, междисциплинарная интеграция, компетентность, STEAM, методика, оценивание, образовательный процесс.

KIRISH

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim oldida turgan asosiy vazifalardan biri o'quvchilarda alohida fanlar bo'yicha bilimlarni shakllantirish bilangina cheklanib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, hodisalar o'rta-sidagi bog'liqlikni anglash, mustaqil fikrlash va ijodiy yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, bilishga bo'lgan tabiiy qiziqishi va atrof-muhitni yaxlit idrok etish ehtiyoji ta'lim jarayonida fanlararo yondashuvdan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ ta'lim o'quvchilarning bilimlarini epizodik holda emas, balki o'zaro aloqador, tizimli va amaliy mazmunda o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda integrativ topshiriqlarni ishlab chiqish mazkur yondashuvning muhim amaliy ko'rinishi hisoblanadi ^[1]. Chunki integrativ topshiriqlar o'quvchidan bir vaqtning o'zida bir nechta fan bo'yicha egallagan bilimlarini qo'llashni, kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish va natijani ifodalashni talab etadi. Masalan, tabiiy fanlar mavzusidagi kuzatuv natijalarini jadvalda ifodalash, ular asosida matematik hisob-kitob qilish, so'ngra ona tili darsida matn tuzish yoki tasviriy san'at orqali rasmda aks ettirish integrativ topshiriqlarning amaliy namunasi. Bunday topshiriqlar o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki izlanishga, fikrlashga va ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan faol subyekt sifatida shakllantiradi.

Integrativ topshiriqlarning pedagogik ahamiyati shundaki, ular o'quvchilarda XXI asr kompetensiyalari: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, kommunikativlik, muammoni hal qilish, axborotni tahlil qilish va bilimlarni amaliy vaziyatlarga ko'chirish qobiliyatlarini rivojlantiradi ^[2].

Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda integrativ topshiriqlarni ishlab chiqish jarayoni o'ziga xos metodik muammolarga ham ega. Amaliyotda ayrim hollarda fanlararo integratsiya bir nechta fan nomini dars ishlanmasida sanab o'tish yoki mavzularni yuzaki bog'lash bilan cheklanib qoladi. Aslida esa integrativ topshiriq fanlar mazmunini sun'iy qo'shish emas, balki yagona didaktik maqsad, hayotiy vaziyat yoki muammoli topshiriq atrofida turli fan bilimlarini mantiqiy birlashtirishni talab qiladi. Shu sababli bunday topshiriqlarni ishlab chiqishda mavzu tanlash, fanlararo bog'lanishni aniqlash, topshiriq mazmunini o'quvchining yosh xususiyatlariga moslashtirish, bajarish algoritmini belgilash va baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim metodik shartlar sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

S.M. Drake integratsiyalashgan o'quv dasturini XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishning samarali yo'li sifatida izohlaydi ^[1]. Uning fikricha, integrativ ta'lim o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, muloqot va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

R. Gresnigt va hamkorlari boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan o'quv dasturlari o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishi, o'qituvchidan esa rejalashtirish, baholash va fanlararo mazmunni uyg'unlashtirish bo'yicha puxta metodik tayyorgarlikni talab qilishini ta'kidlaydi ^[2].

A.I. Hayitovning "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" nomli ishida boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion va integratsion yondashuvlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishning muhim sharti sifatida talqin etiladi ^[8].

A.S. Shodmonova va M. Dilshodovna esa boshlang'ich sinflarda integrativ ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning fanlararo bog'lanishlarni anglashiga, faol fikrlashiga va mustaqil ta'lim faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi ^[9].

Biroq amaliyotda integratsiya ko'pincha bir necha fan nomini bitta dars ishlanmasida sanab o'tish bilan cheklanib qoladi. Aslida integrativ topshiriq fanlar mazmunini sun'iy qo'shish emas, balki bitta muammo, vaziyat yoki amaliy faoliyat atrofida turli fan bilimlarini funksional birlashtirishdir. Shu bois mazkur maqolaning maqsadi - boshlang'ich sinflarda integrativ topshiriqlarni ishlab chiqishning metodik tizimini asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada nazariy-tahliliy metoddan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida boshlang'ich ta'lim, integratsiyalashgan o'quv dasturlari, fanlararo topshiriqlar, STEAM, kompetensiyaviy baholash va o'quv faoliyatini tashkil etishga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Manbalar uch guruhga ajratildi. Birinchi guruhni integratsiyalashgan o'quv dasturlarining nazariy asoslarini yorituvchi tadqiqotlar tashkil etdi. Bu guruhga S.M. Drake ^[1], R. Gresnigt va hamkorlarining ^[2] ishlari kiritildi.

Ikkinchi guruhni boshlang'ich ta'limda integrativ va fanlararo yondashuvni amaliy qo'llashga oid manbalar tashkil etdi. Bu guruhda A.I. Hayitov ^[8], A.S. Shodmonova va M. Dilshodovna ^[9], N.V. Burenkova va I. Kramareva ^[10], N.A. Semenova ^[11] ishlari tahlil qilindi.

Uchinchi guruhga integrativ baholash, STEAM va kompetensiyaviy topshiriqlarni ishlab chiqishga oid manbalar kiritildi. Bu yo'nalishda X. Gao va hamkorlari ^[5], C.F. Quigley va hamkorlari ^[6], S.M. Drake ^[1], E.M. Galyanova ^[12] tadqiqotlari asos sifatida olindi.

Tahlil jarayonida quyidagi mezonlar qo'llanildi:

- manbaning boshlang'ich ta'limga aloqadorligi;
- integratsiya tushunchasini metodik jihatdan yoritishi;
- topshiriq ishlab chiqish yoki baholash mexanizmlariga ega bo'lishi;



- o'quvchi kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi;
- amaliyotga tatbiq etish imkoniyati.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, umumlashtirish, modellashtirish, pedagogik loyihalash va metodik konstruksiyalash usullaridan foydalanildi:

- qiyosiy tahlil orqali turli manbalarda integratsiya tushunchasining talqinlari solishtirildi;
- umumlashtirish orqali integrativ topshiriqlarni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari aniqlandi;
- modellashtirish yordamida topshiriq ishlab chiqishning bosqichli algoritmi ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar asosida boshlang'ich sinflarda integrativ topshiriqlarni ishlab chiqish metodikasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerakligi aniqlandi:

- maqsadni belgilash;
- integratsiya markazini tanlash;
- fanlararo bog'lanishni aniqlash;
- topshiriq turini belgilash;
- bajarish algoritmini ishlab chiqish;
- baholash mezonlarini yaratish;
- refleksiya bosqichini tashkil etish.

Integrativ topshiriq - bu ikki yoki undan ortiq fan mazmunini yagona didaktik maqsad asosida birlashtiruvchi, o'quvchidan bilimlarni amaliy vaziyatda qo'llash, tahlil qilish, taqqoslash, izohlash, ijodiy mahsulot yaratish yoki muammoni hal etishni talab qiluvchi o'quv topshirig'idir.

Oddiy topshiriqda o'quvchi bitta fan doirasidagi bilimni qayta tiklaydi. Integrativ topshiriqda esa o'quvchi bilimlarni bog'laydi, umumlashtiradi va yangi vaziyatga ko'chiradi. Masalan, "Bahor fasli haqida matn tuzing" oddiy ona tili topshirig'i bo'lishi mumkin. Ammo "Bahor faslida o'simliklar o'sishi uchun zarur sharoitlarni kuza-ting, ularni jadvalda ifodalang, natijani 5-6 gapli matn orqali bayon qiling va rasm bilan tasvirlang" topshirig'i ona tili, tabiiy fan, matematika va tasviriy san'atni birlashtiruvchi integrativ topshiriq hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflar uchun integrativ topshiriqlarni ishlab chiqishda quyidagi bosqichlar taklif etiladi.

Birinchi bosqich - o'quv maqsadini aniqlash. Bu bosqichda topshiriq qaysi kompetensiyani rivojlantirishi belgilanadi. Masalan, nutqiy kompetensiya, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy kuzatuvchanlik, ijodiy fikrlash yoki hamkorlik ko'nikmasi.

Ikkinchi bosqich - integratsiya markazini tanlash. Integratsiya markazi sifatida mavzu, muammo, hayotiy vaziyat, loyiha, matn, tajriba, rasm, jadval yoki amaliy faoliyat olinishi mumkin. S.M. Drake integratsiyalashgan ta'limda umumiy mavzu yoki muammoli vaziyatni markazga qo'yish o'quvchi faoliyatini mazmunli tashkil etishini ta'kidlaydi^[1].

Uchinchi bosqich - fanlararo bog'lanishni belgilash. Bunda asosiy fan va yordamchi fanlar aniqlanadi. Masalan, asosiy fan ona tili bo'lsa, tabiiy fan kuzatish materiali, matematika esa o'lchash va jadval tuzish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchi bosqich - topshiriq turini tanlash. Boshlang'ich sinflar uchun kuzatuv topshirig'i, muammoli topshiriq, loyiha topshirig'i, ijodiy topshiriq, tajriba topshirig'i, matn asosidagi topshiriq, rasm-jadval asosidagi topshiriq va STEAM topshiriqlari samarali hisoblanadi.

Beshinchi bosqich - bajarish algoritmini ishlab chiqish. Topshiriq bolaning yosh xususiyatiga mos, bosqichma-bosqich va tushunarli bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun "kuzat - yoz - taqqosla - xulosa qil - taqdim et" kabi oddiy algoritmlar samarali ishlaydi.

Oltinchi bosqich - baholash mezonlarini belgilash. Gao va hamkorlari fanlararo STEM ta'limida baholash faqat yakuniy natijani emas, balki jarayon, hamkorlik, muammoni tushunish, fanlararo bilimni qo'llash va mahsulot sifatini ham qamrab olishi kerakligini ko'rsatadi.

Yettinchi bosqich - refleksiya. O'quvchi topshiriq yakunida: "Men nimani o'rgandim?", "Qaysi fanlardan foydalandim?", "Qayerda qiynaldim?", "Keyingi safar nimani yaxshilayman?" kabi savollarga javob beradi.

Tahlil asosida boshlang'ich sinflarda quyidagi integrativ topshiriq turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

Kuzatuvga asoslangan topshiriqlarda o'quvchi tabiat, ob-havo, o'simlik, hayvon, inson faoliyati yoki atrof-muhitdagi hodisani kuzatadi, natijani jadvalga kiritadi va og'zaki yoki yozma izohlaydi. Bu topshiriq tabiiy fan, matematika va ona tilini birlashtiradi.

- 1. Matn asosidagi integrativ topshiriqlar.** O'quvchi badiiy yoki ilmiy-ommabop matnni o'qiydi, undagi ma'lumotlarni ajratadi, jadval yoki sxema tuzadi, asosiy g'oyani izohlaydi. Bunda o'qish savodxonligi, ona tili, tarbiya va tabiiy fanlar integratsiyalanadi.
- 2. Matematik-hayotiy topshiriqlar.** Masalan, "Sinf gulzoridagi gullar sonini hisoblang, ularni rangiga ko'ra guruhlang, ustunli diagramma tuzing va natijani izohlang". Bu topshiriqda matematika, tabiiy fan, tasviriy san'at va nutqiy faoliyat uyg'unlashadi.
- 3. Ijodiy mahsulot yaratishga qaratilgan topshiriqlar.** O'quvchi plakat, model, rasm, maket, kichik loyiha yoki hikoya yaratadi. Bunday topshiriqlar texnologiya, san'at, ona tili va tabiiy fanlar integratsiyasiga asoslanadi.
- 4. STEAM topshiriqlari.** C.F. Quigley va hamkorlari STEAM dasturlarini loyihalashda fanlar integratsiyasi, o'quvchi faolligi, ijodiy dizayn va amaliy mahsulot yaratish muhim ekanini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinflarda STEAM topshiriqlari sodda, amaliy va vizual bo'lishi kerak. Masalan, "Qog'ozdan ko'prik modeli yasang, uning mustahkamligini tekshiring, natijani sonlar va gaplar orqali tushuntiring".

Integrativ topshiriq namunasi

Mavzu: "Suv - hayot manbai"

Sinf: 3-sinf

Integratsiya qilinadigan fanlar: tabiiy fan, ona tili, matematika, tasviriy san'at, tarbiya.

Maqsad: o'quvchilarda suvning tabiat va inson hayotidagi ahamiyatini tushunish, miqdoriy ma'lumotlar bilan ishlash, fikrni yozma bayon qilish va ekologik mas'uliyatni rivojlantirish.

Topshiriq: Bir kun davomida oilangizda suv qaysi maqsadlarda ishlatilishini kuzating. Natijani jadvalga yozing. Qaysi faoliyatda suv ko'proq ishlatilishini aniqlang. "Suvni tejash uchun men nima qila olaman?" mavzusida 6-7 gapdan iborat matn yozing va suvni tejashga oid belgi yoki rasm yarating.

Bajarish bosqichlari: kuzatish, ma'lumot yig'ish, jadval tuzish, taqqoslash, xulosa yozish, rasm yaratish, taqdimot qilish.

Baholash mezonlari: ma'lumotning aniqligi, jadvalning to'g'ri tuzilishi, xulosaning mantiqiyliigi, matnning ravonligi, rasm yoki belgining mazmun bilan bog'liqligi, ekologik fikrning ifodalanishi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, integrativ topshiriqlar boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning faqat bilimni emas, balki fikrlash, izlanish, bog'lash, amalda qo'llash va taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jihatdan integrativ topshiriqlar kompetensiyaviy yondashuvning amaliy vositasi sifatida qaralishi mumkin.

C. Campbell va M. Henning integratsiyalashgan o'quv dasturlarini rejalashtirish, o'qitish va baholash jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi^[4]. Bu fikr boshlang'ich sinflar uchun integrativ topshiriqlarni ishlab chiqishda ham muhimdir. Agar topshiriq fanlararo tuzilsa-yu, baholash faqat bitta fan mezonini asosida amalga oshirilsa, integratsiyaning didaktik qiymati to'liq namoyon bo'lmaydi.

N.V. Burenkova va I. Kramareva boshlang'ich maktabda integratsiyalashgan ta'lim modeli o'quvchilarning bilish faolligini kuchaytirishini ko'rsatadi^[10]. Bu xulosa integrativ topshiriqlarning asosiy pedagogik vazifasi bilan mos keladi. Chunki bunday topshiriqlar o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki izlovchi, kuzatuvchi, taqqoslovchi va xulosa chiqaruvchi subyektaga aylantiradi.

N.A. Semenova tomonidan "Окружающий мир" integrativ kursi bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy-metodik yondashuv ham boshlang'ich ta'limda integratsiyaning tabiiy shakllanishini ko'rsatadi^[11]. Ayniqsa, tabiiy fanlar, ijtimoiy tasavvurlar, ekologik tarbiya va nutqiy faoliyatni birlashtirish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qulay metodik imkoniyat yaratadi.

Shu bilan birga, integrativ topshiriqlarni ishlab chiqishda ayrim metodik xavflar mavjud:

- fanlar mazmuni sun'iy qo'shib yuborilishi mumkin;
- topshiriq haddan tashqari murakkablashib, bolaning yosh xususiyatiga mos kelmasligi mumkin;
- baholash mezonlari aniq belgilanmasa, o'quvchining qaysi kompetensiyasi rivojlanganini aniqlash qiyinlashadi;
- o'qituvchining metodik tayyorgarligi yetarli bo'lmasa, integrativ topshiriq oddiy ko'p fanli mashqqa aylanib qoladi.



Binobarin, integrativ topshiriq ishlab chiqishda uchta asosiy talabga rioya qilish zarur:

- mazmuniy yaxlitlik topshiriqdagi barcha fanlar yagona maqsadga xizmat qilishini bildiradi;
- yoshga moslik topshiriqning o'quvchi tajribasi, lug'at boyligi, tafakkur darajasi va amaliy imkoniyatlariga mos bo'lishini anglatadi;
- baholashning shaffofligi esa topshiriq natijasi oldindan belgilangan mezonlar asosida aniqlanishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinflarda integrativ topshiriqlarni ishlab chiqish metodikasi fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, amaliy faoliyat va refleksiv baholashning uzviy birligiga asoslanishi kerak. Integrativ topshiriq o'quvchini bir vaqtning o'zida kuzatish, o'qish, hisoblash, taqqoslash, yozish, chizish, loyihalash va xulosa chiqarishga undaydi. Shu jihatdan u boshlang'ich ta'limda bilimlarni hayotiy lashtirish va o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishning samarali vositasidir.

Tadqiqot asosida quyidagi metodik xulosalar ilgari surildi:

1. Integrativ topshiriq bitta aniq didaktik maqsadga xizmat qilishi kerak.
2. Topshiriqda fanlararo bog'lanish tabiiy va mazmunan asoslangan bo'lishi lozim.
3. Topshiriq bajarilishi bosqichma-bosqich tashkil etilishi, o'quvchining yosh xususiyatiga mos bo'lishi zarur.
4. Baholashda faqat yakuniy javob emas, balki jarayon, fikrlash, hamkorlik, izlanish va taqdimot sifati ham inobatga olinishi kerak.
5. Integrativ topshiriqlar tizimli ravishda qo'llanganda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, fanlararo bog'lanishlarni anglash va hayotiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Drake S.M. Creating Standards-Based Integrated Curriculum: The Common Core State Standards Edition. - Thousand Oaks : Corwin Press, 2012. - URL: <https://books.google.com/books?id=PS5ci-shqYYC> (дата обращения: 21.06.2026).
2. Gresnigt R., Taconis R., van Keulen H., Gravemeijer K., Baartman L. Promoting Science and Technology in Primary Education: A Review of Integrated Curricula // Studies in Science Education. - 2014. - Vol. 50, № 1. - P. 47-84. - URL: <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/03057267.2013.877694> (дата обращения: 21.06.2026).
3. Drake S.M., Reid J.L. 21st Century Competencies in Light of the History of Integrated Curriculum // Frontiers in Education. - 2020. - Vol. 5. - Article 122.- URL: <https://www.frontiersin.org/journals/education/articles/10.3389/educ.2020.00122/full> (дата обращения: 21.06.2026).
4. Campbell C., Henning M.B. Planning, Teaching, and Assessing Elementary Education Interdisciplinary Curriculum // International Journal of Teaching and Learning in Higher Education. - 2010. - Vol. 22, № 2. - P. 179-186. - URL: <https://eric.ed.gov/?id=EJ930151> (дата обращения: 21.06.2026).
5. Gao X., Li P., Shen J., Sun H. Reviewing Assessment of Student Learning in Interdisciplinary STEM Education // International Journal of STEM Education. -2020. - Vol. 7. - Article 24. - URL: <https://link.springer.com/article/10.1186/s40594-020-00225-4> (дата обращения: 21.06.2026).
6. Quigley C.F., Herro D., King E., Plank H. STEAM Designed and Enacted: Understanding the Process of Design and Implementation of STEAM Curriculum in an Elementary School // Journal of Science Education and Technology. - 2020. - Vol. 29. - P. 499-518. - URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/s10956-020-09832-w> (дата обращения: 21.06.2026).
7. Hammond D.J. An Investigation into the Impact of an Integrated Curriculum on Learning in the Primary School : Thesis. - Durham : Durham University, 2017. - URL: <https://etheses.durham.ac.uk/id/eprint/12025/> (дата обращения: 21.06.2026).
8. Hayitov A.I. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. - Toshkent : TDPU nashriyoti, 2021. - URL: <https://lib.utu-ranch.uz/media/files/2024/07/29/Boshlangich-2021.pdf> (дата обращения: 21.06.2026).
9. Shodmonova A.S., Dilshodovna M.M. Boshlang'ich sinflarda integrativ ta'lim texnologiyalarini qo'llash // Ilm fan xabar-nomasi. - 2026. - URL: <https://wosjournals.uz/index.php/ilm/article/view/1355> (дата обращения: 21.06.2026).
10. Буренкова Н.В., Крамарева И.Е. Реализация модели интегрированного обучения в начальной школе при активизации познавательной деятельности // CyberLeninka. - 2022. - URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/realizatsiya-modeli-integrirrovannogo-obucheniya-v-nachalnoy-shkole-pri-aktivizatsii-poznavatelnoy-deyatelnosti> (дата обращения: 21.06.2026).
11. Семенова Н.А. Теоретические основы и методика преподавания интегративного курса "Окружающий мир". - Барнаул : AltSPU, 2013. - URL: <https://mooc.do.altspu.ru/pluginfile.php/41863/mod-resource/content/1/Учебно-методическое%20пособие.pdf> (дата обращения: 21.06.2026).
12. Галамова Э.М. Достижение метапредметных результатов на уроках технологии // Начальная школа. - 2014. - URL: <https://n-shkola.ru/storage/archive/1407143088.pdf> (дата обращения: 21.06.2026).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.